


BUXORO VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI 2018/2019-o'quv yili boshiga

Xalq ta'limi vazirligi hamda boshqa idoralarning umumta'lim muassasalari, shuningdek, mulkchilik va tashkiliy – huquqiy shaklidan qat'iy nazar litsenziya asosida nodavlat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha 2018/2019-o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'limning asosiy statistik ko'rsatkichlari shakllantirildi.


Mamlakatlardagi umumiy o'rta ta'lim darajasi Xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu statistik ko'rsatkichlar orqali belgilanadi.

Buxoro viloyatida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi statistik ma'lumotlar manbalari



Buxoro viloyatida 2018/2019-o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 539 tani tashkil etib, ulardan 346 tasi (64,2 %) qishloq joylarida, 193 tasi (35,8 %) shahar joylarda joylashgan.

Umumta'lim muassasalarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, %



Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi



Buxoro viloyatida boshlang'ich (1-4 sinflar) va o'rta (5-9 sinflar) ta'lim bosqichlariga bo'linadigan, davomiyligi 11 yildan iborat tekin majburiy umumiy o'rta ta'lim joriy etilgan.

Umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni

2018/2019-o'quv yili boshiga



Sinf guruhlari bo'yicha
umumta'lim muassasalari
o'quvchilari soni, ming. kishi

1 - 4 sinflar - 128,4

5 - 9 sinflar - 141,2

10 - 11 sinflar - 42,8

Mashg'ulotlar bitta
tilda olib boriladigan
maktablar soni -
504 ta

Mashg'ulotlar turli
tillarda olib boriladigan
maktablar soni -
31 ta

Buxoro viloyatida Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar soni 4 tani tashkil etib, ulardagi o'quvchilar soni 1086 nafardan iborat.

2018/2019-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining jami o'quvchilari soni 313,6 ming kishini tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, o'quvchilar soni qariyb 10 % ga o'sdi.


**2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida
umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni, *ming kishi***

	2017/2018-o'quv yili boshiga	2018/2019-o'quv yili boshiga
Buxoro viloyati	284,1	313,6
shaharlar:		
Buxoro sh.	41,6	47,2
Kogon sh.	8,4	9,4
tumanlar:		
Olot	16,2	17,6
Buxoro	21,3	23,4
Vobkent	19,4	21,2
G'ijduvon	47,4	52,3
Jondor	25,6	28,3
Kogon	10,2	11,5
Qorako'l	25,1	27,3
Qorovulbozor	3,4	3,7
Peshku	19,3	21,2
Romitan	20,5	22,5
Shofirkon	25,7	28,0

2018/2019-o'quv yili boshiga mashg'ulotlar smenaliligi bo'yicha umumta'lim muassasalari sonining taqsimlanishi quyidagicha: 48,2 % maktab bir o'quv smenasida (2017/2018-o'quv yili boshiga 58,6 %), 51,8 % maktab ikki o'quv smenasida (2017/2018 o'quv yili boshiga 41,4 %) ishlaydi.


Smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar sonining taqsimlanishi quyidagicha: birinchi smenada 82,1 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 85,6 %), ikkinchi smenada 17,9 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 14,4 %), o'quvchilar ta'lim olmoqda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi*, %



* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz


Tuman, shaharlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar soni



* o'rindoshlarsiz

Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari

O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi



Umumta'lim muassasalari pedagog xodimlarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi

O'quv yili boshiga	Shahar joylarda, ming kishi	Qishloq joylarda, ming kishi
2017/2018	9,5	14,9
2018/2019	10,3	15,6

2018/2019-o'quv yilining boshida o'qituvchilar umumiy sonida pedagogik ta'lim olgan o'qituvchilar ulushi



Ma'lumot uchun: 2017/2018-o'quv yili boshida ushbu ko'rsatkich 99,9% ni tashkil etgan.

Yuqoridagi grafik va diagrammalardan ko'rinib turibdiki, umumta'lim muassasalarining shtatdagi xodimlari 2018/2019 o'quv yili boshiga 6,3 % ga o'sdi va 26,0 ming kishini tashkil etdi. Shahar joylarida o'sish 8,8 % ga, qishloq joylarida esa 4,8 % ga yetdi.

Shu bilan birga, 2018/2019-o'quv yili boshiga oliy ma'lumotli o'qituvchilar sonining o'sishi 6,3 % ni, o'rta maxsus ma'lumotlilar – 0,2 % ni tashkil etdi.

Bu esa, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining o'qituvchilar safiga qo'shilayotganligini ko'rsatadi.


Buxoro viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.

Buxoro viloyatida umumta'lim maktablarida 25942 nafar o'qituvchi faoliyat olib boryapti. Ulardan ayollar 19747 nafarni tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda 5994 nafar (5825 ta ayol) o'qituvchilar ta'lim berib kelyapti. Ona-tili va adabiyoti fanidan ta'lim berayotgan o'qituvchilar soni 2400 nafar (2238 ta ayol)ni tashkil etadi. Matematika va informatika fanlaridan ta'lim berayotgan o'qituvchilar soni 2473 nafar (1706 ta ayol) ni tashkil etadi. Chet tili fanlaridan jami 2420 nafar (2109 ta ayol) o'qituvchi ish faoliyatini olib boryapti.

Maktablarda 567 nafar psixologlar bolalar psixologiyasini yaxshilash bo'yicha o'z faoliyatlarini unumli olib bormoqda.

2018/2019 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalaridagi
oliy va o'rta ma'lumotli o'qituvchilar ulushi, %



**Buxoro viloyati
statistikasi boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: F.Xafizova
Tel: (65)223-81-65
(71)230-83-18**